
FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN
ILMIY JURNAL



1/2026

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH

scientific-practical and methodological journal



№ 1/2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Ye.E. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva B.S. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova G.N. – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova O.G. – pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Umarova N.Sh. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova N.Z. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov X.X. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov M.R. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva S.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva M.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev A.N. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva G. M. – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova S.T. – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova M. B. – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Yuldashev S.R. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova D.B. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Ye.G. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Джексембаева Г.С. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Jalilov H.N.– psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Jalilov N.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vahobov A.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova M.M. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalilova R.R. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Sh.U. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Sh.F. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev J.Sh. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova F. X. – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

MAKTAB VA SINF MUHITINING KONTEKSTIDA O‘QUVCHILARNING ICHKI NAZORAT LOKUSINING RIVOJLANISHI

Celal Alğan
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
Mustaqil tadqiqotchisi
ORCID: 0009-0002-4150-9586

Annotatsiya. Nazorat lokusi o‘quvchilarning xarakterini rivojlantirish, akademik muvaffaqiyat va ijtimoiy moslashuvida muhim omil hisoblanadi. Nazorat lokusi - bu odamlarning tashqi ta’sirlar emas, balki hayotlarida duch keladigan voqealar natijalarini nazorat qila olishlariga ishonish darajasi. Ushbu maqolada maktab va sinf muhitining o‘quvchilarning ichki nazorat lokusining rivojlanishiga ta’siri pedagogik va psixologik nuqtai nazardan ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Nazorat lokusi, pedagogika va psixologiya, maktab va sinf muhiti, o‘ziga ishonch, akademik muvaffaqiyat

Abstract. Locus of control is a significant factor in students' character development, academic success, and social adjustment. Locus of control is the degree to which individuals believe they have control over the outcomes of events they encounter in their lives, rather than external influences. This article will examine the effects of school and classroom climate on the development of students' internal locus of control from pedagogical and psychological perspectives.

Keywords: Locus of control, pedagogy, psychology, school and classroom climate, self-efficacy, academic success.

Аннотация: Локус контроля является важным фактором развития характера учащихся, академических успехов и социальной адаптации. Локус контроля - это степень, в которой люди верят, что они, а не внешние воздействия, имеют контроль над результатами событий, с которыми они сталкиваются в своей жизни. В этой статье влияние школьного и классного климата на развитие внутреннего локуса контроля у учащихся будет обсуждаться с его педагогическим и психологическим аспектами.

Ключевые слова: Локус контроля, педагогика, психология, школьно-классный климат, самоэффективность, академические успехи.

KIRISH

Shaxsning hayoti uning rivojlanishiga ta’sir etuvchi turli xil ijobiy va salbiy tajribalar bilan boydir. Ushbu tajribalar jarayonida istalgan natijalarga erishish faqat ongli o‘z-o‘zini nazorat qilish mexanizmiga ega bo‘lish orqali mumkin.

Psixologiyada “nazorat lokusi” deb ataladigan bu ko‘nikma shaxsning o‘z hayotini boshqarish imkoniyatiga bo‘lgan ishonchini ifodalaydi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Nazorat lokusi tushunchasi psixolog Julian B. Rotter tomonidan 1954-yilda ishlab chiqilgan (Dönmez, A. 1994). Ushbu tushuncha mazmun-mohiyatiga ko‘ra shaxs psixologiyasining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Shaxsning kundalik hayotida o‘zi va atrof-muhit bilan bog‘liq his-tuyg‘ulari, fikrlari hamda xatti-harakat xususiyatlarini o‘rganish shaxs psixologiyasi doirasiga kiradi. Mazkur tushunchaga asoslanib, shaxslar diqqat markaziga ko‘ra ichki nazoratga yo‘naltirilgan yoki tashqi nazoratga yo‘naltirilgan tarzda tasniflanadi. Nazorat lokusi shaxsning muayyan xatti-harakatlari kutilgan natijalarni qondirishi yoki qondirmasligi haqidagi kutishlariga asoslangan fikr va xatti-harakatlarining ko‘rsatkichi sifatida talqin qilinadi.

Ushbu maqola maktab va sinf muhitining o‘quvchilarda ichki nazorat lokusi rivojlanishiga ta’sirini o‘rganuvchi mavjud tadqiqotlar asosida tayyorlangan tizimli adabiyotlar sharhidir. Ma’lumotlar Google Scholar, Scopus, YÖK Tez Markazi va unilibrary.uz kabi akademik ma’lumotlar bazalarida “nazorat lokusi”, “maktab muhiti”, “o‘ziga ishonch” hamda tegishli kalit so‘zlar orqali qidirilgan. Qidiruv jarayoni hakamlikdan o‘tgan ilmiy jurnal maqolalari, dissertatsiyalar va tegishli kitoblar bilan chegaralangan bo‘lib, ommaviy nashrlar hamda to‘liq matni mavjud bo‘lmagan manbalar istisno qilingan.

To‘plangan adabiyotlar tematik tahlil usuli asosida o‘rganilgan. Tadqiqotlardagi natijalar va munozaralar kodlangan, o‘xshash kodlar birlashtirilib, “ijobiy va salbiy muhit omillari”, “pedagogik amaliyotlar” hamda “psixologik mexanizmlar” kabi asosiy mavzular shakllantirilgan. Maqolaning muhokama qismi va xulosa jadvali aynan shu tematik asosda tuzilgan. Tadqiqotning asosiy cheklovi uning miqdoriy meta-tahlil emas, balki sifatli sintez shaklida olib borilgani hamda tanlangan tillar (turk, ingliz va o‘zbek tillari) bilan chegaralanganidadir.

Ichki nazorat lokusi shaxsning o‘z hayotidagi voqealar va natijalarni o‘z xatti-harakatlari, sa’y-harakatlari hamda qobiliyatlari bilan izohlashga moyilligini anglatadi (Rotter, 1966). Mazkur psixologik tuzilma o‘quvchilarning akademik muvaffaqiyati, ijtimoiy moslashuvi va psixologik bardoshliligi kabi ko‘p qirrali rivojlanish sohalarida muhim rol o‘ynaydi. Ichki nazorat lokusi yuqori bo‘lgan shaxslar odatda mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga moyil, qiyinchiliklarni yengib o‘tish strategiyalarini ishlab chiqishga qodir hamda kuchli o‘ziga ishonchga ega bo‘lgan shaxslar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, o‘quvchilarda ichki nazorat lokusining shakllanishida ular faoliyat yuritayotgan ijtimoiy muhit sifati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Maktab va sinf muhiti o‘qituvchi-o‘quvchi o‘zaro munosabatlari, tengdoshlar bilan aloqalar, qoidalarning adolatli qo‘llanilishi, qo‘llab-quvvatlovchi psixologik atmosfera hamda muxtoriyat yaratish kabi omillarning yaxlit tizimidan iboratdir. O‘quvchi maktabdagi fikr-mulohazalar, baholash jarayonlari va qoidalar bilan o‘zaro ta’sir orqali o‘z xatti-harakatlari bilan natijalar o‘rtasida mazmunli bog‘liqlik mavjud yoki mavjud emasligini anglay boshlaydi. Agar maktab muhiti bashorat qilinadigan, adolatli va o‘quvchining faol ishtirokiga ochiq bo‘lsa, bu holat o‘quvchining sa’y-harakatlari muvaffaqiyatga olib kelishiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlab, ichki nazorat lokusining rivojlanishiga xizmat qiladi. Aksincha, maktab muhiti o‘zboshimcha baholashlar, nomuvofiq qoidalar va qo‘llab-quvvatlovchi munosabatlarning yetishmasligi bilan tavsiflansa, o‘quvchida natijalarni nazorat qila olmaslik hissi shakllanib, tashqi nazorat lokusining rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ichki nazorat lokusi faol o‘rganishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Faol o‘rganish o‘quvchining bilim olish jarayoniga aqliy va xulq-atvor jihatdan faol jalb etilishini nazarda tutuvchi pedagogik hamda psixologik yondashuvdir. Munozara, muammoni hal qilish, loyihaga asoslangan o‘rganish va hamkorlikdagi faoliyatlar o‘quvchilarda ichki nazorat lokusining rivojlanishiga xizmat qiluvchi bir qator muhim psixologik mexanizmlar orqali izohlanadi.

O‘ziga ishonch e’tiqodi. O‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortgani sari u muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlikni tashqi omillar bilan emas, balki o‘z harakatlari, strategiyasi va qobiliyatlari bilan bog‘lay boshlaydi. Mazkur ichki ishonch ichki nazorat lokusining asosini tashkil etadi. O‘ziga ishonch e’tiqodi shaxsning maqsadlarga erishish jarayonida zarur bo‘lgan harakatlarni rejalashtirish va amalga oshirish qobiliyatiga bo‘lgan ishonchi sifatida talqin qilinadi (Sakız, G. 2013).

Muxtoriyat va mas’uliyat hissining rivojlanishi. O‘quvchilarga o‘z o‘quv maqsadlarini belgilash hamda sinf qoidalarini ishlab chiqishda ishtirok etish imkoniyatining berilishi ularning o‘z harakatlari natijalarini bevosita his etishiga yordam beradi. Demokratik sinf muhiti o‘quvchilarning akademik o‘ziga ishonchini hamda ichki nazorat lokusi darajasini oshiradi. Muxtoriyat uchun imkon yaratilgan shaxs o‘zi boshdan kechirayotgan voqealarga ta’sir ko‘rsata olishiga ishonadi, mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi va qabul qilgan qarorlariga egalik hissini shakllantiradi. Patall, Cooper va Robinson (2008) muxtoriyat imkoniyatlari o‘quvchilarning motivatsiyasi hamda o‘rganish ustidan ichki nazoratni idrok etishini oshirishini eksperimental tadqiqotlar orqali asoslab berganlar.

Sababiyat hissining shakllanishi. Ushbu hissiyot o‘quvchini “Menga sodir bo‘layotgan voqealar mening qilgan yoki qilmagan harakatlarim bilan bog‘liq” degan xulosaga olib keladi. O‘quvchi muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik sabablarini tahlil qila oladi hamda olingan natijalar asosida yangi qarorlar qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Kashf qilish va xato qilish erkinligi. Xato qilish erkinligi o‘quvchini natijalarni faqat tashqi hokimiyat, ya’ni o‘qituvchi tomonidan baholanishi haqidagi qarashdan uzoqlashtiradi. Buning o‘rniga u o‘z o‘quv jarayoni va rivojlanishini ichki mezonlar asosida baholashga intiladi. Shu tariqa nazorat o‘z harakatlari natijasida qaror qabul qiluvchi va mustaqil o‘quv faoliyatini boshqaruvchi o‘quvchining o‘ziga o‘tadi. Mustaqil o‘rganishni rivojlantirishning asosiy sharti o‘quvchilarni yangi bilim va ko‘nikmalarni egallashga rag‘batlantirishdan iboratdir (Azizova va boshq., 2024).

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va psixologik xavfsizlik muhiti. Oila, o‘qituvchi va tengdoshlarning qo‘llab-quvvatlashi o‘quvchilarga o‘z hissalarining ahamiyatini his qilish va nazoratni ichki tarzda idrok etishga yordam beradi. Psixologik xavfsizlik muhiti o‘quvchilarga xato qilishdan qo‘rqmasdan o‘rganish imkonini yaratib, ichki nazorat lokusining rivojlanishini kuchaytiradi. Ijobiy maktab muhiti muxtoriyat, kompetentlik, ijtimoiylashuv va ishonch ehtiyojlarini qondirish orqali o‘quvchida hayotni tushunarli, boshqariladigan va nazorat qilinadigan jarayon sifatida qabul qilish e’tiqodini shakllantiradi. Bu esa o‘quvchining akademik hamda shaxsiy hayotda faol, mas’uliyatli va psixologik jihatdan barqaror shaxs sifatida rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘quvchilarning hayotdagi voqealar va yutuqlarni qanday talqin qilishini belgilovchi nazorat lokusi maktab va sinf muhitining eng muhim natijalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli ichki nazorat lokusini rivojlantirish nafaqat individual yondashuvlar, balki butun ta’lim tizimining pedagogik sifati va psixologik muhitini tizimli ravishda takomillashtirish orqali amalga oshirilishi lozim bo‘lgan muhim ta’limiy vazifadir. To‘g‘ri tashkil etilgan o‘quv jarayoni nafaqat ta’lim samaradorligini oshiradi, balki o‘quvchilarning motivatsiyasini uzoq muddat davomida saqlab qolishga ham xizmat qiladi (Toxirovich, N. J. 2024). Ta’lim siyosati va maktab rahbariyati ushbu muhitni qo‘llab-quvvatlovchi resurslar, malaka oshirish tizimlari va tashkiliy mexanizmlarni yaratishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Maktab muhiti o‘quvchilar o‘zlarini qadrlangan, xavfsiz va qo‘llab-quvvatlanayotgan deb his qiladigan sharoitni yaratganda, ichki nazorat lokusining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Demokratik boshqaruv uslubi, o‘quvchilar ishtirokiga ochiq qaror qabul qilish jarayonlari hamda o‘qituvchi-o‘quvchi o‘rtasidagi ishonchli munosabatlar o‘quvchilarning o‘z harakatlari natijalarga ta’sir

qilishi mumkinligiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Maktabda yaratilgan ijobiy muhit — yutuqlar qadrlanadigan, xato qilish imkoniyati mavjud bo‘lgan va o‘quv jarayonida qo‘llab-quvvatlash ustuvor bo‘lgan sharoit — o‘quvchilarning o‘ziga ishonchini oshiradi. Aksincha, qat’iy intizom, avtoritar o‘qituvchi munosabati va o‘quvchining fikr bildirish imkoniyatining cheklanishi o‘quvchilarda nazorat tashqi kuchlar qo‘lida degan qarashni shakllantiruvchi salbiy muhitni yuzaga keltiradi.

Sinf muhiti o‘quvchilarning kundalik o‘quv tajribasini bevosita shakllantiradigan mikro darajadagi pedagogik makondir. Pedagogik ta’sirlar o‘qitish jarayonlarini loyihalash, o‘qituvchi roli va baholash amaliyotlari kabi ongli ravishda rejalashtirilgan omillar bilan belgilanadi. Tajribaviy, hamkorlikdagi va loyihaga asoslangan o‘rganish yondashuvlaridan foydalanuvchi o‘qituvchilar o‘quvchilarning o‘z salohiyatini namoyon etishi hamda ijodkorligini rivojlantirishi uchun qulay sharoit yaratadilar (Qurbonovich, M. U. B. 2024). Hamkorlikdagi o‘rganish, o‘quvchi markazli faoliyatlar va ochiq muloqot muhiti o‘quvchilarga o‘z o‘quv jarayonlarini nazorat qila olish hissini beradi. Guruh ishlari, tengdoshlar qo‘llab-quvvatlashi va munozara madaniyati o‘quvchilarning o‘z g‘oyalarini himoya qilish hamda natijalarga ta’sir ko‘rsatish tajribasini boyitadi. Bu esa ichki nazorat lokusining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Biroq o‘quvchilar faqat o‘qituvchi ko‘rsatmalariga to‘liq bog‘liq bo‘lgan va xatolar jazolanadigan sinflarda tashqi nazorat lokusiga moyillik rivojlanishi mumkin. Shu bilan birga, har qanday ijobiy muhit ham avtomatik tarzda ichki nazorat lokusini shakllantirmaydi. Haddan tashqari erkin va tuzilmasiz muhit ayrim o‘quvchilarda noaniqlik hamda xavotir hissini yuzaga keltirishi mumkin. Bundan tashqari, guruh ishlarida dominant o‘quvchilarning ustunligi boshqa o‘quvchilarning jarayonni tashqi omillar bilan bog‘lashiga sabab bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Shu bois o‘qituvchining muvozanatli rahbarligi va samarali boshqaruvi alohida ahamiyatga ega.

Maktab va sinf muhiti o‘quvchilarning ichki nazorat lokusi rivojlanishini shakllantiruvchi ko‘p qatlamli ta’limiy-ijtimoiy tizimdir. Pedagogik nuqtai nazardan muxtoriyat, konstruktiv fikr-mulohaza va hamkorlikdagi o‘rganish kabi amaliyotlar o‘quvchiga “ta’sir ko‘rsatish” imkoniyatini yaratish orqali ushbu rivojlanishni bevosita qo‘llab-quvvatlaydi. Psixologik jihatdan esa ishonch, adolat va mansublik hissiga asoslangan muhit o‘quvchining mazkur imkoniyatlardan samarali foydalanishi uchun zarur bo‘lgan hissiy xavfsizlik maydonini ta’minlaydi.

O‘qituvchining sinfni boshqarishi bo‘yicha o‘quvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan tadqiqotlarda sinf qoidalarini o‘quvchilar bilan birgalikda belgilaydigan, qat’iy va izchil yondashuvni qo‘llaydigan, barcha o‘quvchilarga adolatli munosabatda

bo‘ladigan hamda ijobiy xatti-harakatlarni rag‘batlantirish orqali qo‘llab-quvvatlaydigan o‘qituvchilarning sinf muhitiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan (Can & Baksi, 2014). Maktab va sinf muhiti o‘quvchilarning intellektual imkoniyatlariga nisbatan sezgirlikni oshiruvchi, motivatsion rag‘batlantirishga ta’sir qiluvchi va nazorat lokusi tendensiyalarini shakllantiruvchi kuchli pedagogik hamda psixologik omillar hisoblanadi.

Tanlash erkinligi ta’minlangan, “biz” tuyg‘usi va ijtimoiy uyg‘unlik kuchli bo‘lgan muhit o‘quvchilarning o‘z harakatlari natijalarga ta’sir qilishiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi hamda shu orqali ichki nazorat lokusining rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi. Aksincha, avtoritar, tashqi yo‘naltirilgan va jazolovchi muhit o‘quvchilarda tashqi nazorat lokusiga moyillikni kuchaytirishi mumkin. Shu sababli o‘qituvchilar uchun nafaqat o‘quvchilarning akademik muvaffaqiyatini, balki ularning uzoq muddatli psixologik bardoshliligini rivojlantirish maqsadida sinf va maktab muhitini ongli ravishda tashkil etish muhim pedagogik mas’uliyat hisoblanadi.

1-jadval

Maktab va sinf muhitining nazorat lokusiga ıkki o‘lchovli ta’siri

Muhit o‘lchovi	**Ichki nazorat lokusini qo‘llab-quvvatlovchi (ijobiy) muhit xususiyatlari**	**Tashqi nazorat lokusini qo‘zg‘atuvchi (salbiy) muhit xususiyatlari**
Boshqaruv va qoidalar	Demokratik, ishtirokchi, oldindan aytib bo‘ladigan, adolatli va izchil qoidalar.	Avtoritar, o‘zboshimchalik, nomuvofiq, qattiq va jazolovchi qoidalar.
O‘qituvchi munosabati va aloqalar	Qo‘llab-quvvatlovchi, ishonchga asoslangan, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, fikr bildiruvchi, muxtoriyatni rag‘batlantiruvchi.	Buyruq beruvchi, masofali, tanqidiy, natijaga yo‘naltirilgan, haddan tashqari nazoratchi.
O‘quv jarayoni va haholash	Faol o‘rganish, tanlash huquqi, xato qilish erkinligi, jarayonga yo‘naltirilgan, konstruktiv baholash.	Passiv o‘rganish, yagona qo‘llash, xato qo‘rquvi, natijaga yo‘naltirilgan, hukm chiqaruvchi baholash.
Ijtimoiy va hissiy muhit	Psixologik xavfsizlik, hamkorlik, hurmat, tegishlilik hissi, tengdoshlarni qo‘llab-quvvatlash.	Tashvish va noaniqlik, raqobat, chetlanish hissi, tengdoshlar o‘rtasidagi nizolar.
O‘quvchida Kutilayotgan Ta’sir	“Mening harakatlarim natijani o‘zgartiradi. Bu yerda mening ovozim bor va men qadrlanaman.” (Ichki nazorat lokusi)	“Natija mening nazoratimda emas. Qoidalar va o‘qituvchi nima desa, o‘shasi bo‘ladi.” (Tashqi nazorat lokusi)

XULOSA

O‘quvchilarda ichki nazorat lokusini rivojlantirish nafaqat individual psixologik yutuq, balki demokratik, mas’uliyatli va psixologik jihatdan barqaror

avlodni tarbiyalashga qaratilgan muhim ta’limiy maqsad hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun o‘qituvchilarning ongli pedagogik yondashuvlari bilan bir qatorda, butun maktab jamoasi tomonidan shakllantiriladigan xavfsiz, adolatli, qo‘llab-quvvatlovchi, kompetentlikni rivojlantiruvchi, stereotiplardan xoli va muxtoriyatni rag‘batlantiruvchi psixologik muhit zarurdir. Ichki nazorat lokusi nafaqat individual shaxsiy xususiyat, balki pedagogik va psixologik jihatdan tizimli ravishda rejalashtirilgan ta’sirlar asosida maktab ekotizimida shakllanadigan rivojlanish jarayoni sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois mazkur jarayon barcha manfaatdor tomonlar tomonidan izchil qo‘llab-quvvatlanishi va mustahkamlanishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarda ichki nazorat lokusining rivojlanishi ularga nafaqat akademik ko‘nikmalarni egallash imkonini beradi, balki zamonaviy jamiyatning murakkab muammolari oldida mas’uliyatni o‘z zimmasiga ola biladigan, o‘z tanlovlarining oqibatlarini anglaydigan hamda o‘zgaruvchan sharoitlarga moslasha oladigan mustaqil va chidamli shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Ta’lim siyosati va maktab boshqaruvi ushbu muhitni yaratish hamda barqarorligini ta’minlash uchun zarur resurslar, kasbiy rivojlanish imkoniyatlari va tashkiliy mexanizmlarni yo‘lga qo‘yishi kerak. Ayniqsa, o‘qituvchilar kasbiy faoliyat davomida nazariy va amaliy bilimlarni samarali uyg‘unlashtirib, o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratishlari zarur. Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda olib boriladigan yangi tadqiqotlar maktab muhiti komponentlarining nisbiy ta’siri va uzoq muddatli samaradorligini muntazam hamda qiyosiy tahlillar asosida o‘rganish orqali ushbu yo‘nalishdagi ilmiy ishlarga muhim hissa qo‘shishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Azizova F.L., Avezova G.S., Dusmatova M.B., Ataeva G.I. Innovatsion pedagogik usullarni joriy etish orqali talabalar bilim, malaka, ko‘nikmalarini oshirish // Toshkent tibbiyot akademiyasi axborotnomasi. – 2024. – № 9. – B. 1–8.

2. Can E., Baksi O. Öğrencilerin sınıf içi tutum ve davranışlarının öğretmenlerin sınıf yönetimi başarısına etkisi // Asian Journal of Instruction. – 2014. – Vol. 2, № 1 (Özel Sayı). – P. 86–101.

3. Dönmez A. Denetim odağı (locus of control) // Agar Hitler isteseydi… (Sosyal psikoloji yazıları) / Ed. A. Dönmez. – Ankara: İmge Kitabevi, 1994. – S. 189–205.

4. Patall E.A., Cooper H., Robinson J.C. The effects of choice on intrinsic motivation and related outcomes: A meta-analysis of research findings //

Psychological Bulletin. – 2008. – Vol. 134, № 2. – P. 270–300. DOI: 10.1037/0033-2909.134.2.270.

5. Qurbonovich M.U.B. Talaba-yoshlar tashabbuslarini rag‘batlantirish va yo‘naltirishning pedagogik strategiyalari: Tarix va zamon // Fergana Methodical School. – 2024. – № 2. – B. 28–35.

6. Rotter J.B. Generalized expectancies for internal versus external control of reinforcement // Psychological Monographs: General and Applied. – 1966. – Vol. 80, № 1. – P. 1–28. DOI: 10.1037/h0092976.

7. Sakız G. Başarıda anahtar kelime: Öz-yeterlik // Journal of Uludağ University Faculty of Education. – 2013. – Vol. 26, № 1. – P. 185–210.

8. Toxirovich N.J. Masofaviy ta’lim jarayonida talabalarda motivatsion hissini shakllantirishning psixologik xususiyatlari // Pedagogik tadqiqotlar jurnali. – 2024. – Vol. 2, № 1. – B. 182–190.

MUNDARIJA

1.	ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ СОПРОВОЖДЕНИИ ПОДРОСТКОВ: ДИАГНОСТИЧЕСКИЙ И ПРОФИЛАКТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ Алимова Елена Геннадьевна	4
2.	G. BARDIYERNING TOLERANTLIK UCH KOMPLEKSLI MODELI TAVSIFI Bafayev Muxiddin Muxammadovich	14
3.	MAKTAB VA SINF MUHITINING KONTEKSTIDA O‘QUVCHILARNING ICHKI NAZORAT LOKUSINING RIVOJLANISH Celal Alğan	19
4.	OILADA OTA-ONA FARZAND MUNOSABATLARINI MILLIY TARBIY ASOSIDA TASHKIL QILISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI Jabborov Xazrat Xusenovich	27
5.	LIDERLIK PSIXOLOGIYA FANINING TADQIQOT PREDMETI SIFATIDA Jumanazarov Bekzod Begnazarovich	37
6.	SHAXS KOGNITIV ONTOGENEZI VA AVLODLAR NAZARIYASI L.S. Tursunov	45
7.	SOCIAL-PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF DEVELOPING HR MANAGERS PROFESSIONAL COMPETENCIES IN THE CONTEXT OF DIGITAL TRANSFORMATION M.M. Abdukarimov	53
8.	YUQORI SINF O‘QUVCHILARIDA SUITSIDAL XAVF DARAJASINI PASAYTIRISHDA PSIXOPROFILAKTIK VA PSIXOKORREKSION METODLARNING EKSPERIMENTAL TAHLILI Qodirova Shoxidabonu Sobirjon qizi	57
9.	OILAVIY QADRIYATLAR VA PROSOTSIAL XULQ-ATVOR SHAKLLANISHI Rasulova Dildora Shuhratovna	65
10.	QARISH JARAYONINING PSIXOFIZIOLOGIK VA EPIGENETIK MEXANIZMLARI: NAZARIY TAHLIL VA AMALIY YONDASHUVLAR Umirov Shaxrizod O‘rol o‘g‘li	69
11.	PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE FORMATION OF NEW MORAL VALUES IN STUDENTS Umirzakova Nargiza Ismailovna	74
12.	ВОЗРАСТНЫЕ ОСОБЕННОСТИ КРИМЕНАЛЬНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ Махмудова Д.А.	78

MUNDARIJA

13. KREDIT-MODUL TIZIMIDA TARBIYAVIY ISHLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI
Ibragimova Gulsanam Nematovna 82

14. TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH O‘QUV JARAYONI SIFATINI OSHIRISHNING ASOSIY OMILI
Jalilov Nodirjon Azamatovich 89

15. SUN’IY INTELLEKT VOSITALARIDAN TARBIYAVIY JARAYONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI
Karimova Barno Ergashevna 95

16. TA’LIM SIFATINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA KVALIMETRIK PARAMETRLARINI TAKOMILLASHTIRISH
Karimova M.M. 102

17. CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK FANI O‘QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENSIYASI VA METODIK MAHORATI
Uzoqov A.A. 110

18. INNOVATSION TARBIYA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TALABALARNING MA’NAVIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH
Xabibullayeva Shaxlo Ulmesovna 116

19. ARAB DAVLATLARI TARIXSHUNOSLIGINI O‘QITISHNING METODIK ASOSLARI
Axmedov Sanjar Bektemirovich 122

20. XIX ASR IKKINCHI YARMIDA ZARAFSHON OKRUGIDA SOLIQ MUNOSABATLARI VA ROSSIYA IMPERIYASI MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATI
Bo‘tayev Jonibek Shodiyevich 129

21. MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZMDA URUSH QATNASHCHILARINI E’ZOZLASH SIYOSATI
Ishchanova Oybika Farhod qizi 136

22. AFG‘ONISTONDA XX ASRNING 90-YILLARDA HOKIMYAT UCHUN KURASHDA ETNOSIYOSIY OMILNING ROLI
Sharipov Shohruz Faxriddin o‘g‘li 143

23. JADIDLAR QARASHLARIDA XOTIN-QIZLAR TA’LIMI MASALASI
Xabibullo Xoji Muxammadyusuf Alisher o‘g‘li 151

24. RAHBAR NUTQINING KOMMUNIKATIV VA NUTQIY TA’SIRCHANLIK MUAMMOLARI
Xalilova Ruxsora Raupovna 158

Materiallar ko‘chirib bosilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.
Ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqiladi. Tahririyat a’zolarining jurnal ruknlariga mos kelmagan, ko‘rsatilgan talablarga mos bo‘lmagan maqolalarni nashr qilmaslik huquqi bor.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” jurnali 05.05.2026-yildan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy litsenziya asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan maqolalarning barchasi “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi.
Jurnalda nashr etilgan materiallar va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’ul.

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
Tahririyat manzili: Toshkent shahar Sergili tumani Yangi Bunyodobod MFY 8-uy
https://fanlararotadqiqotlar.uz/

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI
AXBOROTLASHTIRISH VA TELEKOMMUNIKASIYALAR SOHASIDA NAZORAT INSPEKSIYASI

ГУВОҲНОМА

№1564147 Фаол

"FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
C-5669890

СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
312386344

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
05.05.2026дан - - чексиз

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Тошкент шаҳри, Сирғали тумани, Янги Бунёдобод МФЙ, Сергели 6а мавзеси, 8-уй, 148-хонадон

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги Ахборотлаштириш ва телекоммуникациялар соҳасида назорат инспекцияси

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Гувоҳнома **№1564147**

Faoliyat turi

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Qo'shimcha ma'lumotlar

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Fanlararo ilmiy tadqiqotlar
Оммавий ахборот воситасининг тили	o'zbek, rus va ingliz tili
Оммавий ахборот воситасининг тури	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Республика миқёсида
Viloyat	
Тарқатилиш шакли	Онлайн

License SYSTEM

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA